

NEMIS TILI GRAMMATIKASIDA BO‘LISHSIZ VA INKOR GAPLARNI HOSIL QILISH USULLARI

Adham Berdimurodov

f.f.f.d. (PhD), Muborak tibbiyot texnikumi, chet tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inkor hodisasi, hozirgi zamon nemis tilida inkorni ifodalovchi vositalar, ularning o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada mazkur sohada taniqli nemis olimlarining xulosalari, inkor so‘zlarning qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: inkor hodisasi, inkor so‘zlar, inkorni ifodalovchi vositalar, inkor kategoriyasi, sintaktik kategoriya, morfologik tasnif, salbiy ma’no.

Ma’lumki, tilda mavjud bo‘lgan inkorni ifodalovchi vositalar salbiy ma’noni anglatib keladi. Bunda u yoki bu narsani rad etish sodir bo‘ladi. Nemis olimi Ulrix Engelning ta’kidlashicha, biror narsa rad etilganda, inkor qilish orqali salbiy ma’no bildiriladi [U.Engel 2004; 444]. U.Engel inkor ifodalashning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: rad etish, istisno qilish, inkor qilish. Olim tomonidan inkor qarama-qarshilik va inkor qilishga ajratib o‘rganiladi.

Ta’kidlash joizki, ko‘pchilik hollarda asosan dialogik matnlarda rad etish sodir bo‘ladi. Dialogik nutq jarayonida so‘zlovchi oldingi nutq harakati orqali bildirilgan fikr mazkur kontekstda asossiz ekanligini bildirmoqchi bo‘lganida rad etish amalga oshiriladi. Bu yerda rad etish asosan, avvalgi gapning mazmuniga (yoki uning taklifiga) tegishli bo‘lmaydi, balki ushbu nutq aktining turiga (illokativ) tegishli hisoblanadi. Shu nuqtay nazardan, rad etish har doim mustaqil ifodalardan tashkil topadi, ular odatda inkor etuvchi ma’nosidan tashqari nutqiy harakat tasviriy ifodani ham o‘z ichiga oladi.

Tilda mavjud bo‘lgan inkorni ifodalovchi so‘zlar inkor kategoriyasini anglatib keladi. Ushbu kategoriya qadimgi davrlardan beri falsafiy tushuncha sifatida o‘rganib kelingan. Deyarli barcha faylasuflar mazkur kategoriya haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib kelgan. Chunki, inkor hodisasi falsafa tarixida asosiy kategoriya va tushunchalardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Falsafiy ta’rifga ko‘ra inkor hodisasi mavhum tushunchani anglatgan.

Tilshunoslikda esa, inkor hodisasi grammatik tushuncha sifatida o‘zining o‘rniga ega bo‘lib, ma’lum darajadagi ma’no va mazmun anglatuvchi ifoda vositalariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda, tilshunoslikda inkor hodisasini, inkor kategoriyasini uzoq tarixga ega bo‘lgan talqin qilish va tahliliy o‘rganish an’anasi mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Dunyoning qator tillarida bo‘lgani kabi hozirgi zamon nemis tili grammatikasida ham inkorni ifodalovchi til vositalari mavjud.

Inkorni ifodalash sintaksisning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, bu sohada nisbatan kam darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Inkorni ifodalovchi vositalar grammatik kategoriya sifatida amaliy jihatdan ma’lum darajada qo‘llanib keladi. Uni ilmiy tomondan o‘rganish ba’zi qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Inkor hodisasi muammosi taniqli tilshunos olimlar H.Albrecht, J.Buscha, G.Helbig, W.Heinemann, E.Hentschel, U.Engel kabilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu muammo bilan shug‘ullangan nemis olimlarning bildirgan fikr-mulohazalariga ko‘ra, inkor ham so‘z birikmasi, ham sintaksisga xos kategoriya hisoblanadi. Shu fikrlarga asosan, inkor vositalari yordamida turli darajadagi gramatik shakllarni hosil qilish mumkin. Barcha olimlar ta’kidlab o‘tganidek, hozirgi zamon nemis tilida inkorni ifodalovchi universal vosita nicht inkor so‘zi hisoblanadi. Nicht inkor so‘zi gapda istalgan gap bo‘lagiga taalluqli bo‘lishi va uni inkor qilishi mumkin. Agar nicht fe‘l (kesim)ni inkor etsa, gapning oxirida keladi va u holda to‘liq ifoda etiladi. Garchi u gapdagi biror gap bo‘lagini inkor etgudek bo‘lsa, unda inkor, qisman inkor deb ataladi. Masalan: Albert kommt nicht. Albert kommt nicht allein. Nicht Albert kommt, sondern sein Vater. Alle seine Töchter sind nicht verheiratet. Nicht alle seine Töchter sind verheiratet.

Atoqli tilshunos olim Ye.I.Shendels mazkur inkor yuklamasining qo‘llanilishi haqida quyidagi fikrni bildiradi: „nicht inkor so‘zi besh holatda, ya’ni subyekt, harakat nomi, obyekt, aniqlovchi va ravishlardan oldin keladi (E.I.Shendels, Deutsche Grammatik, M., Высшая школа, 1988, s.274-275)“.

Ma’lumki, barcha tillarda mavjud bo‘lgan so‘zlar morfologik nuqtai nazardan tasnif qilinadi, ya’ni ular so‘z turkumlariga ajratiladi. Biroq inkor vositalari so‘z turkumi sifatida shu paytgacha e’tirof etib kelinayotgan so‘z turkumlari qatoridan o‘zining qat’iy o‘rnini egallamagan. Biz inkor so‘zlarni yo olmosh, yo ravish kabi so‘z turkumlari qatoriga kiruvchi element, leksik birliklar tarzida qo‘llanilishi haqidagi fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Suningdek, nicht inkor so‘zining inkor yuklama sifatida qo‘llanilishi haqida tadqiqotchilarning bir xil fikrga egaligiga guvoh bo‘lamiz.

Ta’kidlash joizki, inkor so‘zlarning leksik-semantik qo‘llanilishi, so‘z yasovchi vositalar sifatidagi xususiyatlari, gap va yasama so‘zlardagi o‘rniga ko‘ra, hamda kelib chiqishi jihatidan turli-tuman guruhlariga mansubligini ko‘ramiz. Masalan, „hozirgi nemis tilida inkorni ifodalovchi so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish mumkinligini ta’kidlash lozim. Birinchidan, sof nemischa inkor so‘zlar (nicht, nein, kein, nie, niemand kabi olmosh va ravishlar), ikkinchidan, a-, de-, re-kabi internatsional inkor yuklamalar, boshqacha aytganda, prefikslar. Inkor yuklamalari, avvalo, so‘z yasovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi, tilning so‘z boyligini orttiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: avitaminoz, alogizm, amoralizm, angidrid; degazatsiya, dezinfektsiya, dezinformatsiya, dezintegratsiya, dekvifikatsiya, denominatsiya, destruktsiya, deformatsiya, detsentralizatsiya; reaksiya, rekonstruktsiya, remilitarizatsiya, reorganizatsiya, reproduksiya, reeksport, reemigratsiya va h.k. [A.Nurmuxamedov, A.A.Xasanov, Xorijiy filologiya. №2, 2017-yil, B.61-64]”.

Shu jihatdan, „nicht,, so‘zining joylashish o‘rni haqida fikr-mulohazalar bildirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda gapdan tashqari joylashuv bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar mavjud. Ayrim chet elliklar ko‘pincha „nicht,, inkor so‘zi qayerda qo‘llanilishi kerakligini farqlay olmaydi. Bundan tashqari, „hech qanday“ yoki boshqa inkor so‘zini ishlatish kerakmi yoki yo‘qmi degan savolga javob berishda ikkilanib qolishadi, bu yerda ba’zi noaniqliklarga duch kelinadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun juda ko‘p tushuntirishlar va qoidalar mavjud bo‘lib, ular ushbu muammolarni yechishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, “nicht,, inkor so‘zining joylashish o‘rni masalasi har doim bahstlab muammolardan biri bo‘lib kelgan va uning yechimini topish uchun tilda mavjud bo‘lgan grammatik qoidalarni va ularni qo‘llanish vaziyatlarini o‘rganish hamda ularga to‘liq amal qilish ko‘zda tutiladi.

Aytish joizki, bu borada har doimgidek, bir qator istisnolar mavjudligini ko‘rsatib o‘tish lozim. Masalan:

Walter hat am Morgen nicht im Kaufhaus eingekauft.

Robert ist nicht zu spät ins Kino gegangen.

Marie sitzt nicht am Tisch.

Anton macht die Hausaufgaben nicht gern.

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, „nicht“ inkor so‘zi va inkorni ifodalovchi boshqa vositalar gapda turli o‘rinlarda qo‘llanib, gap tarkibida ishtirok etgan bo‘laklarni turli pozitsiyalarda inkor qilib keladi, shuningdek, ayrim hollarda butun bir gapning ma’nosini inkor etib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Albrecht H., Helbig G.: Die Negation, Leipzig (Verlag Enzyklopadie Leipzig) 1973.
2. Buscha J., Helbig G.: Deutsche Grammatik, Ein Handbuch für den Ausländerunterricht, Berlin und München (Langenscheidt KG) 2001.
3. Heinemann Wolfgang: Negation und Negierung, Leipzig (VEB Verlag Enzyklopadie Leipzig) 1983.
4. Hentschel Elke: Negation und Interrogation, Tübingen (Max Niemeyer Verlag) 1998.
5. Engel Ulrich: Deutsche Grammatik –Neubearbeitung. München: Idicium 2004.
6. Nurmuxamedov A., Xasanov A.A.. Inkorni ifodalovchi internatsional vositalar. Xorijiy filologiya. №2, 2017-yil, B.61-64.
7. Паномарева Е.И.. «Отрицание в немецком языке». М. Просвещение, 1983, 64 с.
8. Саидов С. «Немис тили грамматикаси намуналарда», -Тошкент. 1990 й.
9. Шендельс Е.И. «Практическая грамматика немецкого языка». 3-е издание, исправленное, М., «Высшая школа», 1988, 274-284 с.